

SURUNKALI YURAK YETISHMOCHILIGI BO'LGAN VA COVID-19 O'TKAZGAN BEMORLARDA TIVORTIN PREPARATINING SAMARADORLIGINI ANIQLASH
ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТИВОРТИНА У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ, ПЕРЕНЕСШИХ COVID-19
DETERMINATION OF THE EFFICACY OF TIVORTIN IN PATIENTS WITH CHRONIC HEART FAILURE UNDER COVID-19

Shamuratova N.Sh., Djumaniyazova Z.F., Shermetov R.A.
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, O'zbekiston Respublikasi
n.shamuratova@list.ru

Annotatsiya. COVID-19 o'tkazgan surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda kasallikning klinik kechishini baholash va COVID-19 ni davolashda tivortin preparatini samaradorligini aniqlash maqsadida COVID-19 bilan birga surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda yurakning exokardiografiyasi ko'rsatkichlar o'zgarishi o'rganilib, davolashda tivortin preparatini samaradorligi va uning antioksidant terapiyasining endoteliy funksiyasiga ta'siri o'rganildi. Ilmiy tadqiqot jarayonida surunkali yurak yetishmovchiligi funksional sinf II-III bo'lgan 85 nafar bemor olindi. Tekshiruvdan o'tgan 23 yoshdan 74 yoshgacha bo'lgan bemorlarning 30 nafari COVID-19 kasalligini o'tkazgan bemorlar tivortin bilan davolangan 1-guruh, 35 nafari COVID-19 kasalligini o'tkazgan va tivortinsiz davolangan surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlar 2-guruh, 3-nazorat guruhi 20 nafar COVID-19 o'tkazmagan yurak yetishmovchiligi bo'lgan va tivortin bilan davolangan bemorlar olingan.

Kalit so'zlar: surunkali yurak yetishmovchiligi, COVID-19, tivortin, exokardiografiya, samaradorlik.

Аннотация. С целью оценки клинического течения заболевания у пациентов с хронической сердечной недостаточностью, перенесших COVID-19, и определения эффективности препарата тивортин в лечении COVID-19 были изучены изменения эхокардиографии сердца у пациентов с хронической сердечной недостаточностью на фоне COVID-19. Изучена эффективность тивортина в лечении и влияние его антиоксидантной терапии на функцию эндотелия. В ходе научного исследования было взято 85 больных с хронической сердечной недостаточностью II-III функционального класса. Из обследованных пациентов в возрасте от 23 до 74 лет 30 пациентов с COVID-19 получали лечение тивортином в 1-й группе, 35 пациентов с хронической сердечной недостаточностью, перенесших COVID-19 и получавших лечение без тивортина во 2-й группе, 3 контрольная группа было взято 20 пациентов с сердечной недостаточностью, не болевших COVID-19 и получавших тивортин.

Ключевые слова: хроническая сердечная недостаточность, COVID-19, тивортин, эхокардиография, эффективность.

Annotation. In order to evaluate the clinical course of the disease in patients with chronic heart failure who have undergone COVID-19 and to determine the effectiveness of the drug tivortin in the treatment of COVID-19, the changes in echocardiography of the heart in patients with chronic heart failure along with COVID-19. The effectiveness of tivortin in treatment and the effect of its antioxidant therapy on endothelial function were studied. During the scientific research, 85 patients with chronic heart failure of functional class II-III were taken. Of the examined patients aged 23 to 74 years, 30 patients with COVID-19 were treated with tivortin in Group- 1, 35 patients with chronic heart failure who had COVID-19 and treated without tivortin were in Group-2 group, 3-control group, 20 heart failure patients who did not have COVID-19 and were treated with tivortin were taken.

Key words: chronic heart failure, COVID-19, tivortin, echocardiography, efficiency.


Mavzuning dolzarbligi: Covid-19 nafas yo'llarining yuqumli hamda o'pka pnevmoniyasi bilan asoratlanuvchi yuqori yuqumlilikka ega bo'lgan kasallik hisoblanadi. Ayniqsa bu kasallik yurak-qon tomir hastaligi bor bemorlarda og'ir kechishi bilan ajralib turadi [1, 3, 6]. Kasallik yurak qon tomir tizimiga bevosita shikastlovchi ta'sir ko'rsatishi hamda qon-tomir devori endoteliysini shikastlashi bilan qonda elektrolit balansini buzish orqali yurak yetishmovchiligi klinik belgilarini kuchaytiradi [2, 4]. Bundan tashqari virusning o'pkaning nafas yuzasini shikastlashi sababli yurakning qon bilan ta'minlanishi buzilishi oqibatida yurak ishemik kasalliklari avj olishi mumkin [9, 10]. MDH davlatlari hamda O'zbekistonda epidemiologik ma'lumotlar xilma-xilligi ushbu mavzuni o'rganishga qiziqish orttiradi. Pandemiya so'ng bu ko'rsatkichning ortish ehtimoli yuqoriligi, surunkali yurak yetishmovchiligi mavjud bemorlarda bu infeksiyaning og'ir o'tishi maxsus parvarish hamda davolash talab qilinadi [5, 7, 8].

Tadqiqot maqsadi: COVID-19 o'tkazgan surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda kasallikning klinik kechishini baholash va COVID-19 ni davolashda tivortin preparatini samaradorligini aniqlash maqsadida COVID-19 bilan birga surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda yurakning exokardiografiyasi ko'rsatkichlar o'zgarishi o'rganilib, davolashda tivortin preparatini samaradorligini va uning antioksidant terapiyasining endoteliy funksiyasiga ta'sirini o'rganishni madsad qilib olganmiz.


Tadqiqot vazifalari: COVID-19 o'tkazgan surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda klinik kechishini baxolash, COVID-19 o'tkazgan surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda yurakning Exokardiografiyasi, EKG ko'rsatkichlar o'zgarishini o'rganish, COVID-19 o'tkazgan surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda antioksidant terapiyani (tivortin) ta'sirini baxolash.

Tadqiqot ob'ekti va usullari. Ilmiy tadqiqot jarayonida surunkali yurak yetishmovchiligi funksional sinf II-III bo'lgan 85 nafar bemor olindi. Tekshiruvdan o'tgan 23 yoshdan 74 yoshgacha bo'lgan bemorlarning 30 nafari COVID-19 kasalligini o'tkazgan bemorlar tivortin bilan davolangan 1-guruh, 35 nafari COVID-19 kasalligini o'tkazgan va tivortinsiz davolangan surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlar 2-guruh, 3-nazorat guruhi 20 nafar COVID-19 o'tkazmagan yurak yetishmovchiligi bo'lgan va tivortin bilan davolangan bemorlar. Uchala guruhda ham davolashdan oldin va davolashdan keyin koronavirus infeksiyasida yurak qon-tomir kasalligining klinik belgilari, qonning biokimyoviy ko'rsatkichlari, manjetli sinama natijalari, qon ivish tezligining ko'rsatkichlari, C reaktiv oqsilni aniqlash natijalari, ferritin miqdori, EKG va ExoKG natijalari aniqlandi va tekshirildi. Surunkali yurak yetishmovchiligi bilan og'rikan bemorlardagi klinik belgilarni tashxislashda klinik kardiologiyada qabul qilingan klinik-laborator va tibbiy diagnostik jihozlardan foydalanilgan. Tekshiriluvchi uchala guruh bemorlarda tivortinning ta'siri 1-rasmda keltirilgan.

Uchala guruh bemorlarning anamnezi o'rganildi va o'tkazgan kasalliklarining uchrash chastotasi 2-rasmda aks ettirildi.




1-rasm. Tekshiriluvchi bemorlarda tivortin ta'siri




2-rasm. Anamnezida o'tkazgan kasalliklar chastotasi

Barcha guruhdagi bemorlarning anamnezida irsiyatga bog'liq kasalliklari o'rganildi va 3-rasmda ko'rsatib o'tildi.



3-rasm. Kuzatilgan bemorlarning irsiyatga moyil kasalliklari bo'yicha taqqoslash

Bemorlarda davolashdan oldingi va davolashdan keyingi EKG natijalari 4-rasmda berilgan.



4-rasm. Bemorlarning EKG ko'rsatkichlari

Ilmiy tadqiqot natijalari va xulosa. Qo'llanilgan kompleks terapiyaning samaradorligini aniqlash uchun biz umumiy qon tahlili va qonning biokimyoviy tahlili dinamikasini o'rganib chiqdik, ya'ni davolashdan oldingi va undan keyingi qon ko'rsatkichlarini tahlil qildik. Kompleks davolashdan keyingi qon ko'rsatkichlari manzarasi ularda tivortinning antioksidantlik xususiyati xisobiga ijobiy tomonga o'zgarganini ko'rsatdi, ya'ni ferritin miqdori, biokimyoviy ko'rsatkichlar, qon ivish tezligining va EKG natijalarining me'yorlashuv tomonga o'zgargani kuzatildi. Bu esa surunkali yurak yetishmovchligi mavjud bemorlarning infeksiyon kasallik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va bemor hayoti uchun jiddiy xavf tug'dirishi kutilgan o'zgarishlarni erta aniqlash va davolash orqali o'lim ko'rsatkichini sezilarli darajada kamaytirish imkoniyatini beradi. Natijada yurak yetishmovchiligidan infeksiyon kasallik bilan komorbid holatida davolashni yangi bosqichga olib chiqib, kasallikdan sog'aygan bemorlarning hayot sifati yaxshilanishi hamda umrining uzayishiga erishiladi.

Amaliy tavsiyalar: Profilaktika maqsadida Tivortin 42mg/100ml 6 oydan 5kun qabul qilish. Qon reologiyasini yaxshilash uchun: Atsetilsalitsil kislotasi 125 mg mikrodozalangan antiagregantlar boshlash. Xavotir va depressiya kuzatilgan bemorlarga serotoninni teskari bog'lovchilarning selektiv ingibitorlaridan: Essitalopram 10 mg 1 oy mobaynida qo'llash tavsiya qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dzhumaeva M. J., Tabarov A. I., Fayzulloev K. T. Combination of the therapy of the anticoagulants and Tivortin in patients with cardiac ischemia at COVID-19 // Infusion & Chemotherapy. – 2020; (3.1): 91-91.
2. Alyavi A. et al. GW27-e0520 Influence of Tivortin on hemodynamic parameters in patients with coronary heart disease //Journal of the American College of Cardiology. 2016;Vol. 68 (16S): 84.
3. Agaev M. M. Miokard infarkti bo'lgan bemorlarni statsionar rehabilitatsiya qilishda propranolol va geprainning klinik samaradorligi // Klin. asal. - 2008. - No 3. - S. 58-65.
4. Alyavi A.L., Tashkenbayeva E.N. O'tkir miokard infarktining qondagi siydik kislotasi darajasiga qarab klinik belgilari. // Doktor axborotnomasi-Samarqand 2009-№5-132-138-bet.
5. Шамуратова Н.Ш., Дусчанов Б.А., Рузметова Д.А. Сурункали гепатитлар диетотерапиясини сорго билан бойитишда клиник-иммунологик самарадорлик// Инфекция, иммунитет и фармакология. - 2022; (3.2):377-383.
6. Dzhumaeva M. J., Tabarov A. I., Fayzulloev K. T. Combination of the therapy of the anticoagulants and Tivortin in patients with cardiac ischemia at COVID-19 // Infusion & Chemotherapy. – 2020; (3.1): 91-91.

7. Yakubova A.B., Palvanova U.B. Dietotherapy of patients with peptic ulcer disease on the background of Covid-19 in environmentally unfavorable conditions of the Southern Priaral//Морфологиянинг Covid-19 пандемияси билан боғлиқ долзарб муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман тўплами. Урганч. 2021. 125 бет.
8. Шамуратова Н.Ш., Закирходжаев Ш.Я. Оценка эффективности диетотерапии, с использованием рациона, обогащённых местными зерновыми культурами у больных хроническими гепатитами //Академическая наука- проблемы и достижения. Материалы XVIII международной научно-практической конференции. 2019.-С.12-14
9. Якубова А.Б., Палванова У.Б. Проблемы здоровья связанные с экологией среди населения Приаралья мақола Научно-медицинский журнал “Авиценна” Выпуск №13. Кемерово 2017г.12-15 стр.
10. Volkova E. G., Malykhina O. P., Levashov S. Yu. Takroriy miyokard infarkti: biomarkerlar va miyokardni qayta qurish tarkibidagi o'zgarishlar (o'rganish, vaziyatni nazorat qilish) // Kardiologiya. - 2007. - No 7. - S. 26-28.